
“BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL TRANSFORMATSIYANING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI”
Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami
I-qism
IQTISODIY BARQARORLIK
YASHIL IQTISODIYOT
INNOVATSIYA VA TEXNOLOGIYALAR
IJTIMOIY FAROVONLIK
XALQARO HAMKORLIK

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“REAL IQTISODIYOT” KAFEDRASI

“BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL TRANSFORMATSIYANING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI”

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI

2026-yil 25-may

I bo‘lim

SAMARQAND-2026

UO‘K: 332.1:502.131.1(06)
KBK: 65.04+20.18
A 80
Artikov, Z.S.
“Barqaror rivojlanish va yashil transformatsiyaning zamonaviy mexanizmlari” Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami (I-II qism) [Matn] / Z.S. Artikov ; muharrir O.M. Pardayev va boshq.- Toshkent: TURON NASHR (Mirzo Abdullo nur savdo), 2026.-406 b.

TO‘PLOVCHI VA NASHRGA TAYYORLOVCHI:
Z.S.Artikov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, professor.

NASHR UCHUN MAS’ULLAR:
O.M.Pardayev – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
G.M.Shadiyeva – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
T.S.Sharipov – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent;
Sh.A.Sultonov – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;
R.J.Qurbonova – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
Z.I.Abdullayeva – iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
D.S.Musinov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
B.O.Do‘stmatov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
Z.I.Sattarova – dotsent v.b;
Z.K.Raximov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
M.E.Erdonov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.;

SAHIFALOVCHILAR:
M.E.Erdonov – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi PhD, dotsent v.b.
S.B.Iskandarov – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti;
Sh.N.Mirzayeva – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti;
A.I.Asrorov – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti;
V.A.Fozilov – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti;
Sh.SH.Mirzaxadjayeva – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti.

Тезисы редактируются авторами. Авторы несут ответственность за представленные в них цифры, факты, выводы и рекомендации. Некоторые их мнения могут не соответствовать взглядам организационной группы.

The materials of the scientific-practical conference highlight theoretical and methodological approaches to the formation of modern mechanisms for sustainable development and green transformation, as well as problems and solutions related to the introduction of green technologies in ensuring the ecological sustainability of economic sectors. They also address issues of rational resource use, improving energy efficiency, and applying low-carbon development principles in the socio-economic development of regions. The materials further present theoretical views and practical recommendations on accelerating the transition to a green economy, ensuring environmental security, improving innovation and investment mechanisms, and defining green transformation priorities within national and regional development strategies.

This collection contains articles and theses by professors, doctoral students, independent researchers, masters and talented students on modern technologies for implementing structural changes in the services sector.

The materials in the collection can be used by bachelors, masters, doctoral students, independent researchers, government officials and specialists in this field studying in the field of economics.

Abstracts are edited by the authors. The authors are responsible for the figures, facts, conclusions and recommendations presented therein. Some of their views may not reflect those of the organizational group.

UO‘K: 332.1:502.131.1(06)
KBK: 65.04+20.18

ISBN 978-9910-5219-5-9

© Artikov, Z.S., 2026-y.
© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026-y.
© “TURON NASHR” nashriyoti, 2026-y.

ijodiy jarayonda faol ishtirok etish imkonini beradigan tajribaviy turizm turi”dir.
Kreativ turizmning asosiy belgilariga quyidagilar kiradi:
Interaktivlik – sayyoh faqat kuzatuvchi emas, balki jarayon ishtirokchisi.
Ekoturizm elementlarining integratsiyasi:

Ko‘plab kreativ dasturlar ekologiyaga zarar yetkazmaslik prinsiplariga asoslanadi.
Masalan: tabiiy bo‘yoqlardan foydalanish, qayta ishlangan meteriallar bilan hunarmandchilik, ekologik toza transport vositalarida sayohat qilish, mahalliy ekologik festivallarda ishtirok etish. Mahalliy aholining ekologik madaniyatini oshirish: Kreativ loyihalar orqali aholida ekologiyaga bo‘lgan mas’uliyat kuchayadi: Chiqindilarni saralash bo‘yicha treninglar, “yashil ustaxonalar” tashkil qilish, ekologik san’at ko‘rgazmalari.
Atraf muhitni muhofaza qilish zarurati bugungi kunda global ekologik muammolar – iqlim o‘zgarishi, o‘rmonlarning kamayishi, suv resurslarining taqchilligi – turizmga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuning uchun ham, har qanday turizm shakli atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab qiladi.
Ayni paytda yuzaga kelayotgan asosiy muammo va xavflar quyidagilar:

- turistik oqimning ko‘pligi sababli tabiiy hududlarda rekreasion bosim ortmoqda.
- rejalashtirilmagan turlar natijasida tabiiy hududlarda chiqindilarning ko‘payishi.
- suv va energiya resurslarining haddan tashqari sarfi ortishi.
- madaniy meros obyektlari shikastlanishi.

Kreativ turizm orqali ushbu muammolarni yumsatish imkoniyatiga ega bo‘lishimiz mumkin. Chunki u ommaviy turizmga nisbatan kam ekologik zarar yetkazadi, mahalliy resurslardan tejamkor foydalanishni rag‘batlantiradi. Ya’ni, mavjud resurslardan turistlar ijodiy yondoshuvlar asosida turistik faoliyatning ishtirokchisi sifatida turni qiziqarli o‘tishiga yordam beradi.

Turizmni milliy iqtisodiyotning muhim drayveri sifatida rivojlantirish imkoniyatlari

Abdurasulov Shovqiddin
Sam ISI, “Turizm” kafedrasi katta-o`qituvchsi

Annotatsiya: Ushbu maqola turizm milliy iqtisodiyotini rivojlanishida muhim tarmoq sifatida namoyon bo‘lmoqda, turistik bozor esa jahon, mintaqaviy va milliy iqtisodiyotlarning o‘ziga xos tuzilma, xulq-atvor va samaradorlikka ega bo‘lgan muhim sohaviy jihatlari yoritildi.

Kalit so`zlar: drayver, turizm, milliy iqtisodiyot, investitsiya, kommunikatsiya, mehmonxona, turistik resurs, biznes, sivilizatsiya.

Turizm zamonaviy sharoitda dunyo mamlakatlarining iqtisodiy o‘sishida muhim rol o‘ynayotgan sohalardan biriga aylandi. U faqatgina yalpi ichki mahsulotning o‘sishiga hissa qo‘shmay, aholining balki bandlik darajasini oshirish, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish, investitsiyalar oqimini kuchaytirish va mamlakatning xalqaro imijini yaxshilash kabi omillar orqali milliy iqtisodiyot uchun qo‘shimcha qiymat yaratadi.

Bugungi globallashuv va raqobat muhitida turizm sohaci jahon iqtisodiyotining eng tez sur’atlarda rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida tan olinmoqda. Xususan, ko‘plab mamlakatlar turizmni milliy iqtisodiyotning asosiy drayveri sifatida belgilab (“**Drayver** (inglizcha *driver* — "dvigatel", "harakatga keltiruvchi mexanizm") — bu jarayonlar, subyektlar va ularning holatlarini rivojlantirish va o‘zgartirishga ko‘maklashuvchi harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi”[1]) uning salohiyatini kengaytirishga alohida e’tibor qaratishmoqda.

Iqtisodiyotning drayver sohasi deb iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydigan, innovatsion taraqqiyot jarayonlarini rag‘batlantiradigan hamda sohalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va hamkorlikni kuchaytiruvchi yetakchi tarmoq tushuniladi. Bunday tarmoqlar barqaror rivojlanish va yangi qiymat yaratish jarayonlarini tezlashtirish orqali umumiy iqtisodiy faollikni oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan turizm sohasi nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi asosiy omillardan biri, balki ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, madaniy almashinuv va sivilizatsiyalar o‘rtasidagi muloqotni rag‘batlantirish orqali jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi strategik yo‘nalish sifatida ham namoyon bo‘lmoqda.

Iqtisodiy o‘sish drayverlari — bu potensial bozor talabini aniqlaydigan va rivojlanish nuqtalaridan kelib chiqadigan impulslarni ushlab, turli aktivlarni jalb qilgan holda mamlakat iqtisodiyotini o‘zgartiruvchi kuchli oqimga aylantiradigan turli murakkab mexanizmlar majmuasidir[2]. Bundan tashqari, boshqa ta’rif ham mavjud: iqtisodiy o‘sish manbai bilan iqtisodiy tizim o‘rtasida bog‘lanishni ta’minlovchi mexanizmlar[3].

Drayverlar turli tabiatga ega bo‘lishi mumkin, ammo ularning asosiy vazifasi — milliy iqtisodiy tizim doirasida vertikal va gorizontal aloqalarni shakllantirish hamda rivojlanish nuqtalarida paydo bo‘ladigan impulslarni ushlab qolish va tarqatish orqali yagona integratsiyalashgan tizimni vujudga keltirishdan iboratdir.

Hozirgi kunda turizm jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotida muhim tarmoq sifatida namoyon bo‘lmoqda, turistik bozor esa jahon, mintaqaviy va milliy iqtisodiyotlarning o‘ziga xos tuzilma, xulq-atvor va samaradorlikka ega bo‘lgan muhim sohaviy bozori sifatida faoliyat yuritmoqda. Xalqaro turizm rivojlangan sanoat sohasi bo‘lib, u davlat va davlatlararo darajada maxsus tartibga solish tizimi va

---

[1] Zaychenko I.M., Kozlov A.V., Shitova Ye.S. DRAYVERЫ SIFROVOY TRANSFORMATSII BIZNESA: PONYATIE, VIDЫ, KLYUChEVЫE STEYKXOLDERЫ. Nauchno-texnicheskiye vedomosti SPbGPU. Ekonomicheskiye nauki. Tom 13, № 5, 2020

[2] Ivanova L. N. Tochki rosta i drayverы rosta: k voprosu o soderjanii ponyatiy / L. N. Ivanova // Journal of Institutional Studies (Jurnal institutsionalnых issledovaniy). – 2015. – № 2. – S. 120-133.

[3] Drayver rosta ekonomiki primenitelno k promыshlennosti [Elektronnыy resurs]. – Rejim dostupa: https://popecon.ru/otrivki/863-draiver-rosta-ekonomiki-primenitelno-k-promyshlennosti.html (Data obraщeniya 21.04.2019)

institutlari, hamda ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish va boshqarishning o‘ziga xos usullari bilan ajralib turadi.

Turizm sohasi doimiy takomillashib borayotgan mahsulot yaratilishi, ishlab chiqarish siklining muntazam yangilanishi bilan xarakterlanadi. Turizm jahon yalpi milliy mahsulotining o‘n foizini ta’minlab, turli to‘siqlar (tabiiy ofatlar, texnogen falokatlar, terroristik hujumlar va boshqalar) yuzaga kelishiga qaramasdan, iqtisodiyotning eng yirik, yuqori daromadli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida to‘liq e’tirof etilgan.

Bugungi kunda turizm dunyo mamlakatlarining, jumladan O‘zbekistonning ham ijtimoiy, madaniy va ekologik muhitiga ta’sir ko‘rsatayotgan eng muhim sohalardan biriga aylanmoqda. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, globallashuv jarayonlari shiddat bilan kechayotgan sharoitda jahon turizm industriyasi O‘zbekiston uchun ham ustuvor strategik ahamiyat kasb etmoqda va mamlakat uchun ulkan imkoniyatlar va istiqbollarni ochib bermoqda. Xalqaro turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud bo‘lishiga qaramasdan, O‘zbekiston xalqaro turistik bozorda hali yetarli darajada o‘z o‘rnini mustahkamlagan emas. Mamlakatning xalqaro turistik tizimga to‘liq integratsiya bo‘lishiga esa qator ichki va tashqi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda tashkiliy-institutsional to‘siqlar mavjud bo‘lib, ularni bartaraf etish turizm sohasini rivojlantirishda muhim vazifa hisoblanadi.

Bugungi global iqtisodiyot sharoitida turizm soha sifatida nafaqat madaniy aloqalarni mustahkamlash, balki iqtisodiy barqarorlik va o‘sishni ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Turizmning rivojlanishi orqali mamlakatlar o‘z iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, yangi ish o‘rinlari yaratish, investitsiya oqimini oshirish va innovatsion rivojlanishni tezlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Avvalo, iqtisodiy diversifikatsiyani ta’minlash masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, turizm an’anaviy tarmoqlar — sanoat va qishloq xo‘jaligidan farqli ravishda xizmat ko‘rsatish sohasini faol ravishda rivojlantirish orqali iqtisodiyot tarkibini muvozanatlashtirish imkonini yaratadi. Turizmning kengayishi iqtisodiyotning turli segmentlariga yangi impuls berib, umumiy barqarorlik va rivojlanishni ta’minlaydi. Bu jarayon kichik va o‘rta biznes subyektlarining faolligini oshirib, mahalliy iqtisodiyotda raqobat muhitini kuchaytiradi.

Shu bilan birga, turizm sohasi bandlik darajasini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Turizm mehnat talabchan soha bo‘lib, turli kasb va malakaga ega bo‘lgan odamlar uchun ish o‘rinlari yaratadi. Ayniqsa, yoshlar, ayollar va qishloq aholisi uchun yangi imkoniyatlar ochiladi. Mehmonxona xizmati, ekskursiya tashkil qilish, milliy hunarmandchilik va ovqatlanish sohalarida ish o‘rinlari ko‘payib, aholi daromadlari oshadi, ijtimoiy barqarorlik ta’minlanadi.

Turizmning yana bir muhim jihati — to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita investitsiyalarni jalb qilish qobiliyatidir. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish (mehmonxonalar qurilishi, yo‘l va transport tarmoqlarini yaxshilash, axborot-kommunikatsiya xizmatlarini kengaytirish) orqali mahalliy va xalqaro sarmoyadorlar uchun jozibador muhit yaratiladi. Natijada, nafaqat turizm sohasi, balki bankchilik, savdo, qurilish va xizmat ko‘rsatish sohalari ham investitsiya oqimidan foydalanadi.

Bundan tashqari, turizm xalqaro iqtisodiy muloqot va integratsiya jarayonlarini faollashtirishda katta o‘rin tutadi. Turizm orqali mamlakatlar o‘rtasida savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalar mustahkamlanadi, milliy mahsulot va xizmatlar tashqi bozorlarga chiqadi. Turistik brendlar va milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish orqali mamlakatning xalqaro imiji yaxshilanadi va tashqi bozorda raqobatbardoshligi oshadi.

Nihoyat, zamonaviy turizm sohasi innovatsion g‘oya va texnologiyalarni joriy qilish uchun ham katta maydon hisoblanadi. Yangi xizmat turlari, raqamli platformalar, onlayn bronlash tizimlari va “aqlli turizm” texnologiyalari joriy etilishi sohaning raqobatbardoshligini oshiradi. Shu bilan birga, bu jarayon milliy iqtisodiyotda ham innovatsion yondashuvlarni keng joriy etishga, startaplar va texnologik bizneslarning rivojlanishiga turtki beradi.

Xulosa qilib aytganda, turizm sohasining rivojlanishi nafaqat iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, bandlik darajasini oshirish va investitsiya jalb qilish imkoniyatlarini yaratadi, balki milliy iqtisodiyotning zamonaviy texnologiyalarga integratsiyalashuvini ham tezlashtiradi. Shuning uchun ham turizmni strategik darajada rivojlantirish mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti va barqarorligini ta’minlashda ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA CHAKANA SAVDO SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Qarshiyeva Maftuna Sadullayevna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Investitsiya va innovatsiya” kafedrasi stajyor-assisstenti,
maftunasadullayevna@sies.uz.

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar asosida chakana savdo samaradorligini oshirish yo‘llari tadqiq etilgan. Maqolada elektron savdo platformalari, CRM tizimlari, mobil va QR-to‘lovlar, big data, raqamli marketing hamda ombor zaxiralarini boshqarish dasturlarining chakana savdo korxonalari faoliyatiga ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqotda raqamli texnologiyalar savdo jarayonlarini tezlashtirish, mijozlar ehtiyojini aniqlash, xarajatlarni kamaytirish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va korxonaning raqobatbardoshligini kuchaytirishning muhim omili sifatida asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Chakana savdo, raqamli texnologiyalar, savdo samaradorligi, elektron savdo, big data, raqamli marketing.

Kirish

Zamonaviy iqtisodiyotda chakana savdo sohasi aholining kundalik iste’mol ehtiyojlarini qondirish, ishlab chiqaruvchi va iste’molchi o‘rtasidagi aloqani ta’minlash hamda ichki bozor barqarorligini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Raqobatning kuchayishi, xaridorlar talabining tez o‘zgarishi va xizmat ko‘rsatish sifatiga bo‘lgan talabning ortishi chakana savdo korxonalaridan an’anaviy boshqaruv

А.Х.Джумаев	Приоритеты экологической политики узбекистана.	342
N.X.Ruzibayeva	Yashil iqtisodiyot moliyaviy mexanizmidan foydalanish yo‘llari	347
M.Q.Nizomov	Yashil iqtisodiyot mexanizmlarini rivojlantirishning global masalalari	352
Ф.Ф.Саламов **Р.Аминджанова**	Пути развития туристических услуг в условиях цифровой трансформации	355
M.E.Erdonov	Инновационные, инвестиционные и институциональные механизмы развития зеленой экономики	357
Sh.A.Buranov	Samarqand viloyatida yashil iqtisodiyotning innovatsion, investitsion va institutsional mexanizmlarini rivojlantirish masalalari	360
S.N.Hukumova	Ijara xizmatlari bozorining nazariy asoslari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari	363
D.H.Shaymardonova **S.Mukhamednazarova**	The role of digital banking in the modern economy.	370
D.H.Shaymardonova **S.J.Meliboyev**	Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish	375
Z.I.Abdullayeva **Y.I.Sharipova**	Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida innovatsiya va investitsiyalarni boshqarishni takomillashtirish	379
M.E.Erdonov **J.S.Bozorov**	Raqamli xizmatlar iqtisodiy o‘sish omili sifatida	383
N.B.Yahyoxonov	Xizmatlar sohasida yashil transformatsiyani ta’minlashda raqamli marketingning o‘rni va samaradorlikni oshirish mexanizmlari	388
Z.I.Abdullayeva **У.Б.Нуриддинова**	Этические нормы труда	392
Н.Б.Рузиева	«Механизмы развития «зеленой» экономики: Инструменты для устойчивого будущего»	394
Z.I.Abdullayeva **Н.Д.Султонова**	Теоретико-методологические основы исследования роли искусственного интеллекта в системе обслуживания клиентов	397
Sh.Abdurasulov	Turizm sohasini rivojlanishida kreativ turizmning tutgan o‘rni	400
Sh.Abdurasulov	Turizmni milliy iqtisodiyotning muhim drayveri sifatida rivojlantirish imkoniyatlari	402

“Barqaror rivojlanish va yashil transformatsiyaning zamonaviy mexanizmlari”
xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
MATERIALLARI TO‘PLAMI
2026-yil 25-may

ISBN: 978-9910-5219-5-9

4174

«TURON NASHR» nashriyoti
100129. O‘zbekiston Respublikasi
Samarqand viloyati, Samarqand shahri,
Xo‘ja Ahror Valiy ko‘chasi, 37-uy.
Tasdiqnoma: № 4174 (22.09.2020-y.)

Nashriyot muharriri: M.Roziqova

Musahhih: F.Tohirova

Bosishga 04.06.2026-yilda ruxsat etildi.

Qog’oz bichimi 210×297 1/4.

«Times New Roman» garniturasi.

Shartli bosma tobog’i 25.0.

Adadi 50 nusxa. Buyurtma raqami: N-33

«NAVRO‘Z POLIGRAF» MCHJ matbaa

bo‘limida chop etildi.

Tasdiqnoma: 374736 29.08.2024-yil.

Samarqand shahri, X.Abdullayev ko’chasi, 63-uy.